



AMIR TEMUR DAVLAT BOSHQARUVIDA IJTIMOIIY MUHOFAZA VA XAVFSIZLIK

G'ayrat Madaminov Madiyarovich

UzMU harbiy tayyorgarlik o'quv markazi front orti va moliyaviy ta'minot sikli boshlig'i

Qurbanov G'ani Abilovich

UzMU harbiy tayyorgarlik o'quv markazi front orti va moliyaviy ta'minot sikli o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10427679>

ARTICLE INFO

Received: 15th December 2023

Accepted: 22th December 2023

Online: 23th December 2023

KEY WORDS

ABSTRACT

Bizga ma'lumki, har bir xalqning o'z sardorlari, sarbonlari, alp bahodirlari, millatparvar, vatanparvar farzandlari-sulton podsholari bo'ladi. Ular o'zlarining ijtimoiy, siyosiy faoliyatlari, betakror aql-zakovatlari bilan ma'lum bir jamiyatning ham, unda yashovchi kishilarning ham taqdirini o'zgartirib yuboradilar. O'z xalqining, vatanining ozod va obod bo'lishi uchun fidoyilik, jasorat ko'rsatadilar. Shaxsiy manfaat, shon-shuhrat kabi unsurlarni keyingi o'rinlarga surib qo'yib, millatning dardiga darmon bo'lib yashaydilar.

Bugun muhtaram yurtboshimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning tashabbusi bilan Amir Temur shaxsiga hurmat, Sohibqiron bobomiz va temuriylar davrini qaytadan kashf qilish, Amir Temur davrining nafaqat O'zbekiston, balki dunyo xalqlari davlatchiligida tutgan o'rnining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish, bu jihatlarning yoshlarimiz hayotidagi tarbiyaviy ahamiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Tarixchi olimlarimiz tomonidan eng ko'p o'rganiladigan tarixiy shaxslardan biri bu Amir Temurdir. Uning qilgan ulkan ishlaridan bir qismi haqida to'xtalishni lozim topdik. Amir Temur davrida fan va adabiyot rivojlandi va gullab-yashnadi. Tarixchi Ibn Arabshohning ma'lumot berishicha: "Temur olimlarga mehribon bo'lib, sayyidu shariflarni o'ziga yaqin tutardi. Ulamo va fozillarga to'la-to'kis izzat ko'rsatib, ularni har qanday kimsadan batamom muqaddam ko'rardi". "Temur tuzuklari" da ulamo va fuzalolar hurmatga muvofiq insonlar sifatida jamiyat ijtimoiy tarkibining o'n ikki toifasi vakillari qatoriga kiritilgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, har qanday jamiyat taraqqiyotini ilm-ma'rifatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buni teran anglagan Sohibqiron hokimiyatga kelishi bilan chiqargan dastlabki farmonlarini madrasalar barpo etishga, ilm toliblariga nafaqalar tayinlash bilan boshlagan. Qaysi bir shaharga tashrif buyurmasin, Amir Temur avvalo o'sha yerlik olimu-fozillar bilan uchrashar, ular bilan suhbat qurar, turli mavzularda bahslashar edi. Tarix, matematika, astronomiya, me'morchilik sohalarida yuksak salohiyatga ega Amir Temur uchun tabiiy hol edi.

Sohibqironning ijtimoiy-siyosiy iqtisodiy faoliyatidagi yana bir muhim jihati shundaki, ijtimoiy himoya, kambag'al, kam ta'minlangan kishilarni va o'z xizmatini sidqi-dildan bajargan odamlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi mavjud bo'lgan. Amir Temur davlatidagi harbiy kishilarning har biri ko'rsatgan oliy xizmatlari uchun munosib taqdirlab turilgan. Oddiy



sipoh maosh uchun bir bosh ot qimmatida maosh olgan, o'nboshi ikki ot qimmatida va shu tariqa lavozimi oshgan sari maoshi ham ko'tarilib boravergan. Urushlarda va boshqa ishlarda ko'rsatilgan alohida xizmatlari uchun ham mol-mulklar, turli qimmatbaho buyumlar, yer-suvlar bilan taqdirlanishgan.

Mustaqillik yillarida Amir Temur shaxsiga nisbatan adolatning qaror topishini tarixni haqqoniy o'rganishdagi yutuq sifatida aytishimiz mumkin. Amir Temur hayoti va faoliyatining tarixchi olimlar tomonidan o'rganilishi va amalga oshirilgan tadqiqotlar yangi, avvalgiga nisbatan yuqori bosqichga ko'tarilganini ko'rsatadi. Ularda harbiy yurishlardan ko'zlangan asosiy maqsad sovet tarixshunosligida qayd etilganidek, "talonchilik" va "bosqinchilik" emas, balki ezgu niyat, ya'ni Buyuk ipak yo'lini, kommunikatsiyani tiklash, bu orqali esa savdo-sotiq, ilm-fan taraqqiyotini rivojlantirish uchun sa'y-harakatlar qilgani, bunyodkorlik ishlarini keng masshtabda olib borgani isbotlab berildi.

Amir Temurning iqtisodiy siyosati "Temur tuzuklari" asarida, Boburning "Boburnoma"larida va boshqa ko'pgina Amir Temur, temuriylar to'g'risida yozilgan tarixiy manbalarda har tomonlama bayon etilgan. Ularda Sohibqironning mamlakatni boshqarishi, uni rivojlantirib borish qoidalari, tamoyillari, yo'l-yo'riqlari o'z ifodasini topgan. Bu asarlarda mamlakat iqtisodiyotini tashkil etish, barqarorlashtirish, tartibga solib borish, yuksaltirib borishga oid qimmatli iqtisodiy tavsiyalar, g'oyalar, qarashlar, yo'l-yo'riqlar tizimi bayon etilgandi

Amir Temurning davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toju taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini saylash, sipohlarning maoshi, mamlakatni idora etish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliqlarining burchi va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqa xususida o'z tuzuklarida batafsil bayon etilgan. Umuman olganda, Sohibqiron Amir Temur saltanati aniq va puxta ishlangan tizimga muvofiq faoliyat yuritgan.

Mustaqillik davri tarixshunosligining yutuqli jihatlaridan yana biri, tadqiqotlarda Amir Temur saltanatining xalqaro munosabatlari tarixi va diplomatiya munosabatlari tarixining eng yorqin sahifasi bo'lgani, bunda diplomatiya etiketlariga qat'iy amal qilingani, Sohibqironning mazkur sohadagi mahorati yuqori baholanganligidir. Tadqiqotlarda Amir Temurning jahon tarixidagi xizmatlaridan biri sifatida dunyo xaritasiga siyosiy, geografik o'zgarishlar kiritib, yagona siyosiy va iqtisodiy hudud yuzaga keltirgani va diplomatik munosabatlarni rivojlantirishga katta ahamiyat bergani alohida ta'kidlangan. Xususan, Xorazm, Mo'g'uliston, Oltin O'rda Misr, Turkiya, Xitoy, Yevropa davlatlari bilan olib borilgan diplomatik munosabatlardan ko'zlangan asosiy maqsad savdo-sotiqni rivojlantirish ekanligi e'tirof etilgan.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, o'rganilayotgan davr tadqiqotlarida Amir Temur hayoti va faoliyati davomida ilm-fan va madaniyat rivojining yuqori darajaga ko'tarilganligi va uning keyingi taraqqiyoti uchun asos bo'lgani, Eron, Xitoy, Hindiston, Arab mamlakatlarining madaniy an'analari bilan mahalliy, ya'ni Markaziy Osiyo madaniyatining turli qirralari bilan birikib uyg'unlashuvi jarayonida yangi uslub shakllangani e'tirof etilganini ko'rsatish mumkin.

References:

1. "Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Buxoro, 2022.



2. Amir Temur Ko'ragon. Temur Tuzuklari – Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti davlat korxonasi, 2019, – 160 b
3. XOLMONOVA, Z. (2015). BABÜRNÂMEDEKİ BAZIKELİMELEİN TARİH? VE ETİMOLOJİK TAHLİLİ. Journal of Social Sciences/Sosyal Bilimler Dergisi (2146-4561), 5(9).
4. Turdievna, X. Z. (2021). ROLE OF ALISHER NAVOI IN THE DEVELOPMENT OF MODERN LINGUISTICS. 국제언어문학, (49), 85-106.
5. Холманова, З. Т. (2021). АЛИШЕР НАВОЙНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ТАРАҚҚИЁТИДАГИ ЎРНИ. ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI, 1(2).
6. Bilveren, T. (2015). BABÜRNÂMEDEKİ BAZI KELİMELEİN TARİHİ VE ETİMOLOJİK TAHLİLİ . Kilis 7 Aralık Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi , 5 (9) , 114-118 . Retrieved from <https://dergipark.org.tr/en/pub/kilissbd/issue/45249/566814>
7. Mixail Ivanin. Ikki buyuk sarkarda. Chingizhon va Amir Temur: harbiy san'ati, strategiya va taktikasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017, b.
8. Dadaboyev Hamidulla. Amir Temurning harbiy mahorati / Mas'ul muharrir A. Qayumov /. – Toshkent. Yozuvchi, 1996, – 96